

TARBIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

*Andijon davlat chet tillari instituti**Anvarova Muslimaxon Dilshodbek qizi**Ilmiy maslahatchi: Xomidova Malohat*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyaning maqsad va vazifalari yoritilgan. Tarbiyaning inson kamolotidagi o'рни, komil insonni shakllantirishdagi ahamiyati hamda ma'naviy-axloqiy, aqliy, mehnat, vatanparvarlik, jismoniy va estetik tarbiyaning asosiy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyoti va kelajak avlod taqdiridagi roli ilmiy asoslarda ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, maqsad, vazifa, komil inson, ma'naviyat, axloq, mehnat, vatanparvarlik, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya.

Аннотация: В статье рассматриваются цели и задачи воспитания. Раскрывается роль воспитания в формировании личности, его значение в становлении гармонично развитого человека. Анализируются основные направления воспитания: нравственно-духовное, умственное, трудовое, патриотическое, физическое и эстетическое. Особое внимание уделяется влиянию воспитательного процесса на развитие общества и будущее поколения.

Ключевые слова: воспитание, цель, задача, гармоничная личность, духовность, нравственность, труд, патриотизм, физическое воспитание, эстетическое воспитание.

Abstract: This article examines the aims and tasks of education and upbringing. It highlights the role of upbringing in human development and its importance in shaping a well-rounded individual. The main aspects of upbringing such as moral-spiritual, intellectual, labor, patriotic, physical, and aesthetic education are analyzed. The article also emphasizes the impact of the upbringing process on social progress and the future of the next generation.

Keywords: upbringing, aim, task, personality, spirituality, morality, labor, patriotism, physical education, aesthetic education.

Insoniyat tarixida tarbiya doimo eng muhim tushunchalardan biri bo'lib kelgan. Har bir jamiyat o'z kelajagini, taraqqiyotini va madaniy darajasini avlodlarning qanday tarbiyalanishiga qarab baholaydi. Tarbiya bu shunchaki bilim berish emas, balki insonni komil shaxs sifatida voyaga yetkazishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Bola dunyoga kelgan paytdan boshlab u oilada, keyinchalik maktab va jamoada tarbiyalanadi, hayot davomida esa o'zini tarbiyalash jarayonida bo'ladi. Shu bois tarbiya shaxs kamolotida asosiy o'rin tutadi. Bugungi globallashuv davrida tarbiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Axborot oqimi kuchaygan, texnologiyalar tez rivojlanayotgan, turli madaniyatlar o'zaro aralashib ketayotgan davrda yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash katta mas'uliyat talab qiladi. Agar yoshlar o'z milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va tiliga sodiq bo'lib, shu bilan birga zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lsa, bunday shaxs jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shadi. Demak, tarbiya nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Shaxsning komilligi nafaqat bilim va kasb-hunarga, balki uning ma'naviy va axloqiy qiyofasiga ham bog'liq. Tarbiya jarayonida bolaga yaxshilik va yomonlikni farqlash, to'g'ri qaror qabul qilish, odamlar bilan muloqot qilish, Vatanga sadoqatli bo'lish, mehnatsevarlik va halollik kabi fazilatlar singdiriladi. Shu sababli, tarbiyaning maqsad va vazifalari faqat nazariy tushuncha bo'lib qolmasdan, amaliyotda har bir inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham yosh avlod tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Qabul qilingan hujjatlar, ta'lim dasturlari va davlat dasturlari tarbiyaga katta e'tibor qaratmoqda. Chunki yoshlarning to'g'ri tarbiyalanishi mamlakat kelajagi, uning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ma'naviy yetuk, zamonaviy fikrlaydigan, ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan shaxsni voyaga yetkazish asosiy vazifaga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniq belgilash, ularni ilmiy va amaliy asoslarda o'rganish dolzarbdir. Mazkur maqolada tarbiya tushunchasining mohiyati, uning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni, tarbiyaning

maqsadlari hamda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalari haqida batafsil tahlil qilinadi.

Jamiyat azolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish jamiyat rivoji uchun zarur bolgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi , inson kapitali" ni tayyorlash madaniyatlarni kuzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini taminlash malum jins, yoshi ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda va ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish . Tarbiya jarayonida tarbiyalanivchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga hos bulgan anotamik, fizalogik va pisixologik xususuyatlardir. Masalan; mas'uliyat tuyg'usini boshlangich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda maskur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.Tarbiyaning mazmuni shahsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar,mohiyatidaniborat.Unutmaslik kerakki,aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas balki aniq fikr bilan boglash g'oyat muhimdir. Ta'lim tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda intilishi aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi mazkur jarayonda fanlar aro aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning, birligiga tayangan holda ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir.O'quvchilar odatda hayot adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarini katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boyliklar, qahromonlar hayoti va jasorati shuningdek tarix, adabiyot, san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari shuningdek, ommaviy axborot vositalari - radio televidenie, gazeta jurnallar sahifalarida hamda internet matbuotida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o'quvchilar uchun qimmatli material bo'lib xizmat qiladi O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq atvoriga taqlid qiladilar, xulq atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning ba'zan, esa, yomon

sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qtuvchi va ot-onalar har, qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qayerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozimdir. Kattalarning so'zi bilan yurish - turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak. Tarbiya vaqti qachonki vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, "kuchli harakatga keltiradigan" metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning oddiy metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani „kuchli harakatga keltiradigan“ va „oddiy“ metodlarga bolinishi shart: birinchisi tanbih berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda tarbiyasida muvoffaqiyatga erishishga nisbatan ishonch bulishi kerak. Buning uchun qllanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyatidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nasr Farobiy ta'lim tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladi. shu jamiyat uchun hizmat qiladigan yilik, insonni tarbiya lashdaniborat deb biladi. Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobilyatni tarbiyalaydi va aqilni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda asta sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharafli mehnat va qunt, irodani talab etadi. Tarbiyaning samarali bo'lishi ko'p jihatdan. Hozirgi davrda mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarning mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tamonlama rivojlangan shaxslar qilib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqildi. Birgina "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dastur"ning qabul qilinishi yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, istiqbolli vazifalarni hal etishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashga

yo‘naltirilganligini keltirish kifoya. Tarbiya - yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, shaxsni aqliy, jismoniy, ahloqiy, ma‘naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, insonning jamiyatda yashashini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo‘lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta‘minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi. Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma‘rifiy hayotida faol ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan barcha ta‘sir, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuini anglatadi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo‘libgina qolmay, uning yetakchi g‘oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham oladi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining vazifalari quyidagilardan iborat: o‘quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o‘rganib, unga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish mahoratiga ega bo‘lish; tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur bo‘lgan metodlarni tanlab, ko‘zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko‘ra bilish ilg‘or tajribalarni tahlil qilish va uni o‘z faoliyatida ijodiy foydalanish; tarbiyaviy ishlarning o‘quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta‘sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish; tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim. Darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bilan birga DTS lariga mosligiga e‘tibor qaratish zarur bo‘ladi. 1. Tarbiyaviy ishlar jarayonida barkamol avlodni tarbiyalash muhim o‘rin tutadi. Aniq maqsadga qaratilgan tarbiya ishida jamoaga va ba‘zi bir talablarga ta‘sir qilishini tashkil etish tarbiyaviy ishlarning asosini belgilaydi. 2. Tarbiyaviy ishlarning asosiy jihatida barkamol avlodni har tomonlama kamol topishini hisobga olgan holda ularning tarbiyaviy jihatiga e‘tiborni qaratish zarur bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi va tarbiyachilar yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda mahoratlilikka, metodikaga tayanish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti va uning vazifalarini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: Tarbiyaviy ishlar jarayonining ijtimoiy ahamiyati. Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta‘lim-tarbiya

jarayonini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan “Ta’lim to’g’risidagi” Qonun , “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning yaratilishi ta’limni tubdan halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo’lib, har xil tarzda izohlanib kelindi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliylikiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog‘liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutufakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o‘rganilmoqda. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo‘ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya tarbiyaviy ishlarning aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida amalga oshiriladigan tarbiya, oliy ta’lim tarbiyasini qamrab oladigan jarayonlardir. Ijtimoiy tarbiyaning vazifasi ham jismonan baquvvat, ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo‘lgan, zamonaviy fan-texnika va texnologiya yutuqlarini o‘zlashtiradigan, ma’lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat. Ijtimoiy tarbiya orqali shaxsning ijtimoiylashuvi yuzaga fanlar bilan bog‘liqligidan iboratdir. Ahloq normalari va ahloqshunoslik bilan etika fani shug‘ullanadi. Shunday ekan, tarbiyaviy ishlar metodikasi fani etika bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Xulosa

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, tarbiya – inson kamolotida, jamiyat taraqqiyotida va davlat barqarorligida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan jarayondir. Tarbiya shunchaki bola yoki yoshni nazorat qilish emas, balki ularning ma’naviy olamini boyitish, axloqiy qiyofasini shakllantirish, bilim va ko‘nikmalarini

rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonida maqsad va vazifalarni aniq belgilash nihoyatda muhim. Maqsad — insonni komil shaxs sifatida shakllantirish bo'lsa, vazifalar esa shu yo'lda amalga oshiriladigan aniq bosqichlar va yo'nalishlardir. Bunda ma'naviy-axloqiy, aqliy, mehnat, jismoniy, vatanparvarlik va estetik tarbiyaning o'zaro uyg'unligi katta ahamiyat kasb etadi. Har bir yo'nalish shaxsning hayotida muayyan o'rin tutadi va ularni to'liq amalga oshirish orqali chinakam barkamol insonni tarbiyalash mumkin bo'ladi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni tarbiyalash masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Turli axborot oqimlari, madaniyatlar aralashuvi va yangi texnologiyalar avlodlarning dunyoqarashiga bevosita ta'sir qilmoqda. Shu sababli milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uyg'unlashtirish davr talabi hisoblanadi. Bu esa ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning barcha a'zolari oldiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shuni unutmashlik kerakki, har bir insonning odob-axloqi, bilim darajasi, Vatanga muhabbati va hayotiy pozitsiyasi — ko'p jihatdan uning qanday tarbiya olganiga bog'liqdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. J. Hasanboyev „Pedagogika (pedagogika nazaryasi va tarixi). O'zR Oliy va o'rta ta'lim vazirligi Toshkent Nashir 2011.
2. X. Ibragimov, sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi., T., "Fan va texnologiya", 2008. Masul muharrir: p.f.d, professor R.H. Jo'rayev
3. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qtuvchilar: M. X. Toxtaxodjayva, S. Nishonova, J. Hasanboye, M. Usmonboyeva, S. Madyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov.
4. Hasanboyev J., To'raqulov X., Alqarov I., Usmanov N. Pedagogika. T.: Fan va texnologiya, 2010
5. Tarbiya ensiklopediya. Tuzuvchi M.N. Aminov. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
6. Milliy g'oya- o'quvchi ma'naviyatining asosi. T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti.